



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil
yanvar-dekabr*





SIRDARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI XVI. DEMOGRAFIK HOLAT

Sirdaryo viloyatida 2024-yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni **914,0** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **17,4** ming kishiga yoki **1,9 %** ga ko‘paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **393,5** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **43,1 %**), qishloq aholisi soni **520,5** ming kishi (**56,9 %**) ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

914,0 *ming kishi*

Tabiiy o‘shish

+18,6 *ming kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar



43,1%

Qishloq




56,9%




Sirdaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2024- yil 1-yanvar holatiga



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2024- yil 1-yanvar holatiga



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, viloyatimizda doimiy aholi sonining 31,9 % mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,3 % mehnatga layoqatli yoshdagilar va 9,8 % mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1- yanvar holatiga



Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-dekabr holatiga



2023-yil yanvar-dekabr oylarida Sirdaryo viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **37,6 %** farzandsiz, **28,9 %** bitta farzand bilan **33,5 %** ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.


Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

2024-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	896,6	914,0	101,9
<i>shahar:</i>			
Guliston sh	96,2	99,3	103,2
Shirin sh	19,2	19,4	101,1
Yangiyer sh	46,8	48,0	102,6
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin t	55,0	55,8	101,4
Boyovut t	136,4	138,9	101,8
Sayxunobod t	81,7	82,8	101,3
Guliston t	77,8	79,6	102,3
Sardoba t	69,3	70,3	101,4
Mirzaobod t	79,0	80,4	101,7
Sirdaryo t	134,7	137,2	101,8
Xovos t	100,5	102,3	101,8

Sirdaryo viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi


2024-yil 1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



Sirdaryo viloyatida 2024- yil 1-yanvar holatiga 1 kvadrat kilometr ga o'rtacha **213,6** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **4,1** kishiga ortgan (2023- yil 1-yanvar holatiga 1 kv.km.ga **209,5** kishi to'g'ri kelgan).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Guliston shahrida **2482,5** kishi, Yangiyer shahrida **1600,0** kishi, Shirin shahrida **1940,0** kishi, Boyovut tumanida **267,1** kishi, Sirdaryo tumanida **249,5** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Mirzaobod tumanida **126,5** kishi, Oqoltin tumanida **101,5** kishini tashkil etgan.

QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR




Shahar va tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-dekabr holatiga




2023- yil yanvar-dekabr oylarida **23,2** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **25,7** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2022- yilga nisbatan **-0,6** promillega pasayganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-dekabr oylarida **26,3** promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR



Sirdaryo viloyatida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti


2023- yil yanvar-dekabr holatiga



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **4,6** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **5,1** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan ko'rsatkich **0,3** promillega ko'paygan (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **4,8** promille bo'lgan).


O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-dekabr holatiga, kishi




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **76,1 %** – Qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **2,7 %**- Ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **2,4 %** – Nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **6,8 %** – Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **0,7 %** – Yuqumli va parazit kasalliklardan **4,1 %** – O‘simtalardan vafot etganlar va **7,2 %** – Boshqa kasalliklardan, vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR




Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-dekabr, birlik



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **7,2** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **8,0** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,7** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **8,7** promille bo'lgan).


NIKOHDAN AJRALISHLAR



■ Nikohdan ajralishlar, ming kishi ● O'sish sur'ati, % da

Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti


2023- yil yanvar-dekabr, birlik



■ Nikohdan ajralishlar soni, kishi ■ Nikohdan ajralish koeffitsiyenti


2023- yil yanvar-dekabr oylarida **1,6** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,7** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-dekabr oylarida **2,0** promille bo'lgan).

JAMI KO‘CHIB KELGANLAR




Ko‘chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-dekabr holatiga




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **6,6** mingta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1 000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **7,3** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,5** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **7,8** promille bo‘lgan).

JAMI KO'CHIB KETGANLAR



Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-dekabr holatiga



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **7,7** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **8,5** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,4** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **8,9** promille bo'lgan).



Aholining migratsiya ko'rsatkichlari (2023-yil yanvar-dekabr, kishi)

	<i>Kelish</i>		<i>Ketish</i>		<i>Migratsiya saldos</i>	
	<i>2022- yil.</i>	<i>2023- yil.</i>	<i>2022- yil.</i>	<i>2023- yil.</i>	<i>2022- yil.</i>	<i>2023- yil.</i>
Sirdaryo viloyati	6 885	6 589	7 907	7 739	-1022	-1150
shaharlar						
Guliston	1 566	1 586	1 194	1 335	372	251
Shirin	251	253	284	278	-33	-25
Yangiyer	783	841	519	577	264	264
tumanlar:						
Oqoltin	327	311	561	463	-234	-152
Boyovut	593	576	1 136	1 036	-543	-460
Sayxunobod	368	62	554	505	-186	-443
Guliston	827	815	659	586	168	229
Sardoba	308	299	645	555	-337	-256
Mirzaobod	683	670	635	671	48	-1
Sirdaryo	542	663	848	799	-306	-136
Xovos	637	513	872	934	-235	-421

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'linga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.



Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 67 236-70-00